

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ERGASHEV ABDUSATTOR TULANOVICH

**SAMIG' ABDULLAYEVNING
HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI**

**07.00.01–O'zbekiston tarixi
07.00.02–Fan va texnologiyalar tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ergashev Abdusattor Tulanovich

Samig‘ Abdullayevning hayoti va ijodiy faoliyati.....3

Эргашев Абдусаттор Туланович

Жизнь и творческая деятельность Самига Абдуллаева.....23

Ergashev Abdusattor Tulanovich

Life and creative activity Samig Abdullayev.....43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ERGASHEV ABDUSATTOR TULANOVICH

**SAMIG' ABDULLAYEVNING
HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI**

07.00.01–O'zbekiston tarixi

07.00.02–Fan va texnologiyalar tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2022.4.DSc/Tar273 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.nuu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lif portalı (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoliqulov Axmadjon Boymaxammatovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yermetov Avaz Abdullayevich,
tarix fanlari doktori, professor

Hasanov Jasur Mamatqodirovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot

Muhammad-al Xorazmli nomidagi Toshkent axborot-texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil 30 09 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining Tarix fakulteti, 1-qavat, 106-auditoriya. Tel.: +99871 227-12-24, faks: +99871 246-53-21, +99871 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 19 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy Bosh bino. Tel.: +99871 236-46-55; faks: +99871 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «18» 09 kuni tarqatildi.
(2023 yil «21» 08 dagi 23 raqamli reestr bayonnomasi.)



X.E.Yunusova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.E.Tog'ayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash imiy ko'ubi, t.f.d. (PhD)

N.U.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tarixida ko‘plab harbiy to‘qnashuvlar, kurashlar bo‘lib o‘tgan bo‘lsada, Ikkinchi jahon urushi insoniyat uchun misli ko‘rilmagan salbiy jarayonlar bilan kechgan eng dahshatli tarixiy voqelik hisoblanadi. Uning boshlanishiga dunyoning rivojlangan davlatlarining tashqi siyosati sabab bo‘lganligi ko‘rsatilsada, aslida geosiyosiy, milliy, mafkuraviy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ham ta’sir qilgan edi. Urush natijalari hozirgi kungacha dunyoning geosiyosiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini qayd etgan holda, uning oqibatlari, xususan, millionlab qurbanlar, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma’naviy-ruhiy zo‘riqishlar va boshqa salbiy holatlar insonlar xotirasidan o‘chmaganligini alohida e’tirof etish zarur. Eng asosiysi, jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish va fashistlarga qarshi olib borilgan janglarda insonlar tomonidan amalga oshirilgan qahramonliklarni ko‘rsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari, urushning natija va oqibatlari, shuningdek, jang maydonlarida qahramonlik ko‘rsatgan harbiylarning taqdiri, front ortidagi insonlarning mashaqqatli mehnati va boshqa masalalar har tomonlama o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar natijalari nashr qilinmoqda, muzeylarning ekspozitsiyalari to‘ldirilmoqda. Ushbu natijalar Ikkinchi jahon urushi yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ikkinchi jahon urushi davridagi sinovli yillarda Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan har bir respublika aholisi qatori o‘zbekistonliklar ham jang maydonlarida va front ortidagi mashaqqatli kunlarni boshidan kechirib, g‘alabaga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar. Jumladan, bu borada o‘z fikrlarini bildirgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – “...avvalo, o‘z jonini ona yurt uchun qurban qilgan vatandoshlarimizning ruhi poklari oldida bosh egib ta’zim qilamiz. Sizlar kabi minglab urush va mehnat fronti qatnashchilarini – azmu shijoatli, dovyurak ota-bobolarimiz, sabr-matonatli onalarimiz, momolarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz”¹ – deya ta’kidlagan edi. Haqiqatdan ham, O‘zbekiston xalqining fashistlarga qarshi kurashda faol ishtirok etishi, o‘z ona yurtining tinch, osoyishta hayotini, beg‘ubor osmonini asrash uchun mardlik, jasorat va qahramonlik ko‘rsatgani xalq milliy ruhining qudratini namoyon etishi hisoblanadi. Bu jarayonlarni har tomonlama tahlil qilish va kelajak avlodga yetkazish vatanparvar, fidoyi, sadoqatli yoshlarni tarbiyalash va davlat mustaqilligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatlar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagи PQ-3898-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 9 майдаги “Буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш куни”га багишиланган тантанали маросимдаги нутқидан. <https://aza.uz>.

son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori², Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldaggi 140-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori va mazkur faoliyatga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqoti ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston xalqining jang maydonlarida va front ortida ko‘rsatgan jasorati va matonati, front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoyiligi yoritilgan bir qator adabiyotlar nashr etilgan. Ushbu adabiyotlarning mazmun-mohiyati va davriga qarab, uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq: birinchisi, sovet hukmronligi davrida nashr etilgan adabiyotlar; ikkinchisi, mustaqillik yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar; uchinchisi xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda o‘zbekistonliklarning front va front ortida ko‘rsatgan qahramonliklari aks etgan ko‘plab ilmiy ommabop adabiyotlar nashr etildi. Jumladan, T.D. Djuraev, I.P. Kurguzov, Adham Rahmat, A.A. Sharipov, N.G. Bereznyak, B.V. Badanin³lar tomonidan yaratilgan kitoblarda ushbu masalaning ayrim jihatlari ko‘rsatib berildi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, sovet davrida Ikkinci jahon urushi yillarda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va O‘zbekiston aholisining g‘alabaga qo‘shgan hissasi yoritilgan fundamental asarlar ham yaratildi. Xususan, “Узбекистан в годы Великой Отечественной войны”, “Вклад трудящихся Узбекистана в победу над фашистской Германией” va 3 tomlik “Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны” nomli kitoblarni⁴ hamda boshqa ilmiy

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” Қарори. 2018 йил 4 август, 3898-сон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.10

³ Баданин Б.В. Наступление советских войск и изгнание немецко-фашистских захватчиков с Северного Кавказа. Очерки по инженерному обеспечению битвы за Кавказ в Великой Отечественной войне. – Москва: Воениздат, 1962. – 154 с. Джураев Т.Д. Верные сыны Родины. – Ташкент, 1964. – 512 с; Кургузов И.П. Солдатская доблесть. – Ташкент, 1970. – 145 с; Адҳам Раҳмат. Олтин ўлдуз кавалерлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – Б.14-16; Шарипов А.А. Черняховский. – Ташкент: Молодая гвардия, 1978. – С. 103-105; Березняк Н.Г. Герои Советского Союза – Узбекситанцы. – Ташкент, 1984. – С.365; Баграмян И.Х. Великого народа сыновья. Москва: Воениздат, 1984. – С. 78.

⁴ Узбекистан в годы Великой Отечественной войны (1941-1945) / Отв. ред.: чл.-корр. АН УзССР Р.Х.Аминова и Т.Д. Джураев. – Ташкент: Фан, 1966. – 207 с; Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне. – Ташкент: Фан, 1975. – 250 с; Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Т. 1. – Ташкент: Фан, 1981. – 407 с; Т. 2. – Ташкент: Фан, 1983. - 287 с; Т. 3. – Ташкент: Фан, 1985. – 340 с.

tadqiqot ishlarini⁵ ko‘rsatish mumkin.

Mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha metodologik uslubda yozilgan risolalar, monografiyalar⁶ va kollektiv monografiyalar⁷ hamda bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida⁸ Ikkinci jahon urushi yillarida respublikadagi ahvol, o‘zbekistonliklarning umumiy harbiy safarbarlikka jalb etilishi, aholining front ortidagi fidokorona mehnati, urushdan keyingi yillarda respublikadagi ilm-fanning holati yoritib berildi.

2019-yilda nashr qilingan 2 jilddan iborat “O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar)” asarining ikkinchi kitobida⁹ O‘zbekistonning front arsenaliga aylantirilishi, O‘zbekiston hududida milliy harbiy qismlarning shakllanishi, o‘zbek diviziylarining frontdagi faoliyati, o‘zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati va boshqa masalalar birlamchi manbalar asosida tadqiq qilindi.

1991-yilda SSSR tarqalib, uning o‘rnida 15 ta mustaqil davlatlar tashkil topgandan so‘ng ushbu muammo Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasidagi olimlardan N.N. Nikulin, E. Bivor, M. Xeystinges, O.A. Rjevskiy, A.A. Nikiforov, N.N. Gluxarev, N.G. Romanovalar¹⁰, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi¹¹, Tojikiston Respublikasi¹²

⁵ Клейменов В.Г. Деятельность Коммунистической партии Узбекистана по дальнейшему укреплению дружбы узбекского народа с народами СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1967. – 24 с.; Лутфуллаева З. Деятельность Компартии Узбекистана по организации трудового подвига женщин – колхозниц в годы Великой Отечественной войны. (На материалах южных областей Узбекистана). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – 22 с.; Мамедова Л.С. Руководство Компартии Узбекистана деятельностью интеллигенции в годы Великой Отечественной войны (1941-1945): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – 31 с.; Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945гг.). Дисс. ... канд. юрид. наук. - Ташкент, 1972. – 24 с; Адиханов М. Организация и деятельность политотделов и совхозов Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941-1943 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – 22 с.

⁶ Тюриков В.В. Первый... Первая... Впервые... Ташкент, 1996. – 288 с; Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. - Т.1. Узбекистан в первый период Великой Отечественной войны (1941-ноябрь 1942 г.г.) – Ташкент, 1998. – С.66-99; Азимов Х.И. Ўзбекистонликлар Иккинчи жаҳон уруши йилларида. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2006. – 180 б.; Голованов А.А. Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. – Самарканд: СамГУ, 2006. Часть II. – 104 с; Зиёев Х. Ўзбекистон биринчи ва иккинчи жаҳон урушлари даврида. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 96 б.; Лунин Б.В., АН в годы Второй мировой войны. – Ташкент: Янги нашр. 2012. – 76 б; Алимова Д.А. 75 лет Великой Победы -общая победа. – Москва: Elibrary, 2020. – С. 7.

⁷ Алимова Д.А., Иванова Л.С. 50 лет изучения истории Узбекистана в годы войны 1941-1945 гг. Современные задачи и перспективы её историографии. – Ташкент: Фан, 1995. – 24 с.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет mustamlakachiлиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ. 2000; Лунин Б.В. Академия наук в годы Второй мировой войны. – Ташкент: Янги нашр. 2012. – 76 б; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). – Toshkent: Sharq, 2016. – 464 б; Иккинчи жаҳон уруши ва Ўзбекистон: Янги тадқиқотлар ва тарихий хужжатлар (Альбом): китоб-альбом / нашр учун масъул Х.Султонов; тузувчилар С.Сайдолимов, М.Рахимов, К.Садуллаев, Д.Аберкулов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 288 б.

⁸ Бабаджанов Б.Х. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон иқтисодиётидаги трансформацион жаҳаёнлар. Тарих фан. фал. доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2018. – 46 б; Хасанов Ж. Х.М.Абдуллаевнинг Ўзбекистон фани ривожидаги ўрни ва илмий мероси. Тарих фан. фал. доктори (PhD) дисс. автореферати. – Андижон, 2019. – 51 б; Сафарова З.С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти. Тарих фан. фал. доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2020. – 53 б.

⁹ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 574 б.

¹⁰ Болдуин Х. Сражения выигранные и проигранные. Новый взгляд на крупные военные компании Второй мировой войны. – Москва: Центрполиграф, 2002. - 621 с.; Война и общество 1941-1945. Книга 2. Отв. редактор академик Г.Н. Севостьянов. - Москва: Наука, 2004. - 674 с.; Никулин Н.Н. Воспоминания о войне.

va Turkmaniston Respublikalari¹³ tadqiqotchilari tomonidan tarixiy jihatdan o‘rganilmoqda.

Xorijlik olimlardan P.Antoni, J.Blek, H.S.Kommager, J.Keegan, B.Laybodi, A.Shou, K.Bellami kabi tadqiqotchilar tomonidan Ikkinchiji jahon urushi davridagi insonlar taqdiri umumiy jihatdan yoritilgan¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotlarda O‘zbekiston aholisining (ayrim shaxslarning) Ikkinchiji jahon urushidagi ishtiroki to‘liq o‘rganilmadi. Xususan, sovet davrida yaratilgan asarlar va O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham janglarda qahramonlik ko‘rsatgan shaxslarning faoliyati tarixi yetarli darajada yoritilmadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga hamda И-ОТ-2019-26 raqamli “Ikkinchiji jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga O‘zbekiston xalqining qo‘shgan hissasi to‘g‘risida multimedia kompleksini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihaga (2019-2021 yy.) muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samig‘ Abdullayevning hayoti va ijodiy faoliyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samig‘ Abdullayevning bolalik va o‘smirlilik davri xususiyatlarini ko‘rsatish;

Ikkinchiji jahon urushining boshlanishi, umumiy harbiy safarbarlikning e’lon qilinishi hamda Samig‘ Abdullayevning harbiy xizmatga chaqirilishi va jangchi sifatida shakllanishini yoritib berish;

Samig‘ Abdullayevning fashizmga qarshi jangovar harakatlardagi ishtiroki hamda uning jasorati va qahramonligining hukumat tomonidan mukofotlanishini

Изд. Госэрмитажа. – Москва, 2007. – С. 79-83; Земке Э. От Сталинграда до Берлина. Операции советских войск и вермахта 1942-1945 гг. – Москва: Центрполиграф, 2010. - 603 с.; Бивор Э., Хейстингес М. Вторая мировая война. – Москва: Алпина-нон Фикшн, 2014. - 176 с; Ржевский, Никифоров, Глухарев. Великая Отечественная война. – Москва: Олма медиагрупп. 2015. - 278 с; Роберт Гильдеа. «Бойцы в тени». – Москва, 2015. – 300 с; Романова Н.Г. Вторая мировая война и Восток. – Москва: Институт востоковедения РАН, 2019. – С. 102-154.

¹¹ Айтмухамбетов А.А. Абуев К.К. Вклад народов Казахстана в ВОВ. // Вестник РУДН «История России». Москва. 2005, №4. – С. 20-23; Алдажуманов К.С. Книга. История войны 1941-1945 годов. «Белые пятна». – Алматы, 2011. – 320 с; Жаркынбаева Р.С. Великая отечественная война-социокультурная память о практике в постсоветском Казахстане. // Женщина в Российском обществе. 2017, №1. (82). – С. 103-116.

¹² Масов Р.М. Ратный и трудовой подвиг таджиков и таджикистанцев в годы великой отечественной войны. // Журнал Минкультуры Республики Таджикистан. 2015, № 0228/МЧ. – С. 2-9; Гофуров А. Таджикистан в годы Второй мировой войны. – Душанбе, 2015. – С. 98; Маджидзода Д.З. Великая Отечественная война в работах таджикских историков. // Международный аналитический журнал – участников СНГ. Журнал «Диалог». 2020. – С. 46-58.

¹³ Аннаозаров Ж.С. Туркмены в Великой Отечественной войне Советского Союза. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ашгабат, 1993. – 25 с.

¹⁴ Anthony P. The Making of the Second World War. – N. Y.: Routledge, 1992; Black J. World War Two: A Military History. – Abingdon and N.Y.: Routledge, 2003; Commager H.S. The Story of the Second World War. – Brassey's, 2004; Keegan J. The Second World War. – London: Pimlico, 1997; Lightbody B. The Second World War: Ambitions to Nemesis. – London & New York, Routledge, 2004; Shaw A. World War II: Day by Day. – Osceola, MBI Publishing Company, 2000. Bellamy Ch. Absolute War: Soviet Russia in the Second World War. – N. Y.: Alfred A. Knopf, 2007.

ko'rsatib berish;

Samig' Abdullayevning faol jamoatchi va mohir rahbar sifatida respublika ilm-fanida tutgan o'rnini tadqiq etish;

Samig' Abdullayev jasorati va ijodining harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish;

Samig' Abdullayevning boy hayotiy tajribasidan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanishning uslubiyati bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Samig' Abdullayevning ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalashdagi ishtirokini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning ob'ektini Samig' Abdullayevning hayoti va faoliyatini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti qilib, Samig' Abdullayevning frontda ko'rsatgan jasorati va urushdan keyingi yillardagi faoliyatini ilmiy tahlil etish belgilandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammolixronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil, mantiqiylik, umumlashtirish, og'zaki tarix (oral history) kabi usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

urush yillarida Samig' Abdullayev Sovet armiyasi tank qo'shinlarinig betalofat o'tishi uchun maxsus harbiy operatsiyalarda ishtirok etib, Shimoliy Kavkaz frontining motorlashtirilgan muhandis savyorlik bataloni tarkibidagi bo'linmada yagona o'zbek komandiri sifatida belgilangan vazifalarni aniq qo'ya bilib, Sevastopoldagi aholi punktlari bo'lgan "Красный", "Прохладный", "Джигинское" hududlaridagi daryo ko'priklarini tiklashda ishtirok etganligi aniqlangan;

Samig' Abdullayev Simferopolning Krostin shaharidagi kichik komandirlar muhandislik maktabini muhandis-savyor (portlatuvchi) mutaxassisligida bitirganligi, ko'plab minalarni zararsizlantirganligi, komandir sifatida o'z guruhida boshqaruv tizimini mustahkamlab, razvedka orqali dushman pistirmalari va ularning sonini aniqlaganligi, Sevastopolning Kerch yarim oroli, Sapun gora (Sovunli tog') vodiysini ozod qilishda ishtirok etganligi aniqlangan;

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Samig' Abdullayev rassom sifatida yaratgan asarlarining katta qismi turli millat vakillaridan bo'lgan quroldosh do'stlari, o'zbek generallari, oddiy askarlarning qahramonliklariga bag'ishlanganligi dalillangan;

mustaqillik yillari Samig' Abdullayevning asarlarida davrga hamohang ravishda asosan vatanparvarlik, mardlik, jasoratga yo'naltiruvchi g'oyalar ustunlik qilganligi, asarlari ishtirok etgan harbiy qism, muassasalardagi ko'rgazmalarda ijod na'munalarining mazmun-mohiyatini yetkazishda faol bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini yanada kengroq o'rganishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ilmiy izlanish natijalaridan kelib chiqib, serjant Abdullayev Samig' Fayzulovich haqidagi yangi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida yoritish va

tarixiy kitoblarga kiritish uchun taqdim etilgan;

dissertatsiya materiallari xorijda tashkil etilgan ikkinchi jahon urushida qahramonlik ko'rsatganlarga bag'ishlangan muzeylar fondlarini boyitish uchun yuborilgan;

tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar harbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Harbiy tarix" va "Harbiy jang san'ati" fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanmalariga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, tarixiy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar voqealar ishtirokchilari tomonidan ma'qullanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek xalqining XX asrdagi tarixini, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi davrida ko'rsatgan jasorati va fidoyiligiga oid ilmiy ta'limotlarning yanada boyitilishi, shuningdek, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, yaratilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari uchun nazariy manba sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqining ko'rsatgan qahramonligini targ'ib qilishda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan uchrashuvlarda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, davra suhbatlarida, shuningdek, xalqimizning tarixiy solnomasini yanada boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samig' Abdullaevning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Samig' Abdullayevning urush boshlangunga qadar kichik komandirlar tayyorlash mакtabida puxta bilimga ega bo'lganligi, harbiy mutaxassis, kichik komandir lavozimi vazifalari va majburiyatlarini o'rganganligidagi natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafquraviy ishlar bosh boshqarmasida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 24-martdagi 14/761-son dalolatnomasi). Qo'llanilgan natijalar mazkur davrni faktik materiallar va ma'lumotlar bilan to'ldirishga ko'mak berib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Samig' Abdullayev o'zining bo'linmasi bilan berilgan vazifalarni bajarishda davom etganligi, "Верхний" va "Нижний Курп" nomli aholi punktlari hududida yuz bergan to'qnashuvlarda bajarilgan jangovar vazifalarni boshqarganligi haqidagi natijalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi tarkibidagi "Shon-Sharaf" davlat muzeyining bo'limlarini boyitishda foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 24-martdagi 14/761-son dalolatnomasi). Samig' Abdullayevning frontdagi ishtiroki to'g'risida keltirilgan ma'lumotlarning muzey ekspozitsiyasida namoyish qilinishi yoshlarda ikkinchi jahon urushi tafsilotlari, janglardagi qiyinchiliklar,

o‘zbekistonliklarning qahramonligi haqida yangicha tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda tasviriy san’atning rivojlanishi, ayniqsa Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini portretlarini yaratgani, ularda chuqur vatanparvarlik hissi aks etganligidagi natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirda uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanal” davlat muassasasiining 2023-yil 30-martdagi 06-30-453-son ma’lumotnomasi). Teletomoshabinlarning tarixiy bilimlarini oshirishga hamda O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda – 3 ta ilmiy maqola (2 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Samig‘ Abdullayevning shaxs sifatida shakllanishi**” nomli birinchi bobida Abdullayev Samig‘ Fayzulovichning bolalik, o‘spirinlik va o‘smirlik davri bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar yoritilgan. Mazkur bob 2-Jahon urushiga qadar o‘zbek xalqining hayotini, xususan, mavzu qahramonining katta hayotga qadam qo‘yishi, insoniy munosabatlarga kirishib borishi va ijtimoiylashuvi jarayonlarini tarixiy ketma-ketlikda ifodalaydi.

Samig‘ Abdullayev 1917-yil 25-oktabrda Toshkent shahrining hozirgi Shayxontohur tumanida, hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Fayzullo ota bog‘bonlik, onasi Karomat opa so‘zana va do‘ppi tikish bilan shug‘ullangan. Otasining otasi, ya’ni bobosi Mirfayzi ota to‘quvchilik, kashtachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, farzandlarini voyaga etkazgan. Samig‘ Abdullayevning otasi Fayzullo kasallik sababli 1924-yilda vafot etgan. Oilada 4 nafar farzand etim qolgan.

Samig‘ Abdullayevning onasi Karomat farzandlarini o‘zi tarbiyalab, parvarishlab, voyaga etkazgan. Samig‘ Abdullayev oilaning 3-farzandi, ya’ni kenja o‘g‘li bo‘lgan¹⁵. Otasi vafot etgan vaqtda u 5 yoshda bo‘lgan.

Samig‘ Abdullayev mактабда (115-сон) o‘qishi barobarida “Buyuk knyaz saroyi”da tashkil etilgan “musavvirlik san’ati” to‘garagiga borib, rassomchilik sirlarini o‘rgangan. O‘sha davrda to‘garakni buyuk rassom A.Toshkentboev boshqargan edi¹⁶. Samig‘ Abdullayevda etakchilik va fikrlarini ilgari sura olish qobiliyati bor edi. Yaxshi va a’lo baholarga o‘qirdi. U boshqalardan yordamini ayamaydigan namunali o‘quvchi bola bo‘lgan”¹⁷.

Samig‘ Abdullayev 1933–1938-yillari P. Benkov nomidagi tasviriy san’at bilim yurti tahsil olgan. 1933-yilda u Toshkent rassomchilik bilim yurtiga kirishga muvaffaq bo‘ladi va uni 1938-yilda yaxshi va a’lo baholar bilan tamomladi¹⁸. 1937 yil O‘zbekiston rassomlar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan rassomlar tasviriy san’ati ko‘rgazmasida Samig‘ Abdullayev o‘zining “Yosh skripkachi” nomli birinchi asari bilan ishtirok etdi¹⁹.

Samig‘ Abdullayev tasviriy san’at bilim yurtini tamomlab endigina mustaqil ravishda pedagog sifatida ishlay boshlagan bo‘lsa-da, Ikkinci jahon urushi to‘g‘risidagi sovuq xabarlarni turli yig‘inlarda, majlislarda, oila atrofidagi suxbatlarda eshitib turardi. Sovet davlati atrofida yuz berayotgan harbiy siyosiy vaziyatlarga o‘zicha baho berardi. U yaqinlashib kelayotgan urush uni va tengdoshlarini ham cheklab o‘tmasligini qalbdan his qilardi.

Turli kasblar qatori o‘sha davrda O‘zbekistonda tasviriy san’at ham rivojiana boshlangandi. Xususan, respublika miqyosida san’atni targ‘ib etish, ko‘rgazmalar uyushtirish, muzeylarni tashkil etish ishlari jadallashtirildi. Bu jarayonga ko‘plab mahalliy yosh rassomlar jalb etilib, ularga milliy san’at sirlarini o‘rgatish va rang-barang asarlar yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor kuchaytirildi .

Samig‘ Abdullayev urushga qadar shaxs sifatida shakllandi. San’at bilim yurtini tamomlab, oz muddat bo‘lsada, talabalarni o‘qitdi, ularga san’at sirlarini o‘rgatdi. Tez orada Samig‘ Abdullayev to‘garakdagi o‘qituvchi murabbiylar va o‘quvchi yoshlar orasida hurmat qozondi. O‘zbekiston rassomlari san’ati ko‘rgazmalarida o‘z asarlari bilan ishtirok etib, o‘zbek xalqi dongini dunyoga yoydi, maqtovlarga erishdi. Olamni aks ettirish tilini topdi va ijodiy izlanishlarni boshladi.

Tarixiy va tabiiy janrdagi tasviriy san’at asarlarini yaratishga kirishdi. O‘zbek millatining urf-odatlarini, an’ana va udumlarini yaxshi o‘rgandi. Tabiatga va tashqi olamga ongli munosabatda bo‘lishga odatlandi. Unda Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqat tuyg‘usi uyg‘ondi, farzandlik burchini ado etish kabi his-tuyg‘ular ongida va qalbida jo‘sh ura boshladi.

Yosh rassom Samig‘ Abdullayev shaxs sifatida shakllanib borarkan, o‘zbek xalqi an’analarini, hayot tarzini o‘zida singdirdi va o‘zligini angladi. Buyuk

¹⁵ Ўз МА, Р-2791-фонд, 1-рўйхат, 3-ийғма жилд, 30 варак.

¹⁶ Ўз МА, Р-2791-фонд, 1-рўйхат, 3-ийғма жилд, 27-варак.

¹⁷ Ходжаев Б. К 100 – летию со дня рождения отца Умара Ходжаева. 2017.- С. 38.

¹⁸ Ўз МА, Р-2791-фонд, 1-рўйхат, 3-ийғма жилд, 28-варак.

¹⁹ Қаландаров О. Ёш рассомлар кўргазмаси // “Ўзбекистон комсомоли”. 1937 йил 8 июль. №39 (2112). – Б. 2.

ajdodlar vorisi ekanligini bildi. Shaxs bo‘lib yetishgan inson sifatida u Vataniga, ona yurtiga munosib farzand bo‘lish kerakligini tushunib yetdi.

Samig‘ Abdullayev 1938-yil sentabr oyida Toshkent shahrining Toshkent rayon harbiy komissarligi tomonidan Sovet Ittifoqi armiyasi safiga muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun chaqirtirildi va 22 sentabr kuni muddatli harbiy xizmat o‘tash uchun harakatdagi armiya safiga yuborildi²⁰. Samig‘ Abdullayevning armiya safiga chaqirilishi yillari, ya’ni 1938–1939-yillar Ikkinchi jahon urushining boshlanish vaqtiga to‘g‘ri keldi. Shunday tahlikali kunlarni jahon boshidan kechirayotgan bir paytda Samig‘ Abdullayev harbiy xizmatga chaqirildi.

Dissertatsiyaning “**Samig‘ Abdullayevning jangovar yo‘li va ko‘rsatgan qahramonligi**” nomli ikkinchi bobida, Samig‘ Abdullayevning fashizmga qarshi janglardagi ishtiroki va uning front maydonlarida ko‘rsatgan jasorati va qahramonliklari ko‘rsatilgan.

Samig‘ Abdullayev yigirma bir yoshida harbiy xizmatga chaqirtirildi. U Ukraina shaharlaridan biridagi (ayrim manbalarda Simferopol, ayrim manbalarda Krostin shahri) kichik komandirlar tayyorlash mакtabida harbiy ta’lim oldi. Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirish, Sibir temir yo‘l magistralini kesib qo‘yish va Sovet Uzoq Sharqini zo‘rlik bilan tortib olish maqsadida 1939 yilning may oyida Mongoliya Xalq Respublikasi chegaralarini buzib o‘tgan Yaponiyaning harbiy qismlariga qarshi Xalkin-Gol hududida olib borilgan janglarda qatnashdi. Harbiy mutaxassis, kichik komandir lavozimi vazifalari va majburiyatlarini o‘rgandi va mahoratli harbiy bo‘linma komandiri bo‘lib yetishdi²¹.

Samig‘ Abdullayevni qo‘mondonlik 97-alohida moto-muhandislar batalonining 8-alohida engil-suzib o‘tuvchi qism bo‘linmasi komandiri lavozimiga tayinlangan²². Samig‘ Abdullayev qo‘l ostidagi bo‘linmasi shaxsiy tarkibi bilan²³ 1943-yilning iyun – noyabr oylari davomida Shimoliy Kavkaz frontida, 1943-yil noyabr – 1944-yil may oylari davomida Aloida Primore armiyasi tarkibida jang qildi. Novorossiysk-Tamansk, Kerchensk-Eltigensk va Qrim operatsiyalarida faol ishtirok etdi²⁴.

1943-yil 16-sentabr tungi paytda, “Красный” nomli aholi punkti atrofida Samig‘ Abdullayev bo‘linmasi dushmanning shiddatli olov yog‘dirayotganiga qaramay belgilangan jangovar vazifani bajardi. Bu maxsus operatsiya davomida 97 ta mina zararsizlantiriladi (ulardan 37 tasini shaxsan o‘zi, hayotini xavf ostiga qo‘yib zararsizlantiradi). Zudlik bilan jangovar vazifani amalga oshirish va qo‘shinlarning hujumga o‘tishini ta’minlash istagi uni bu jasoratga undagan edi. Ushbu fidoyilik natijasida Sovet armiyasi uchun dushman tomon yo‘l ochib berilgan edi²⁵.

Batalon komandiri mayor P.I. Vidman bo‘linma komandiri serjant Samig‘

²⁰ Вклад народа Узбекистана в победу над фашизмом. – Ташкент: Узбекистан, 2020. – С. 320.

²¹ Такташ Р.Х. Живопись, Графика, Скульптура. – Ташкент, 1977. – С.4.

²² Россия Федерацияси Мудофаа Вазирлиги марказий архиви, 32003-фонд, 433623-рўйхат, 1-ийғма жилд, 2-варак.

²³ Ходжаев Б. К 100 летию со дня рождения отца Умара Ходжаева. – Ташкент, 2017. – С. 38.

²⁴ Россия Федерацияси Севастополь мудофаа музейи. Хат, 292/2021. Л.1.

²⁵ Видман П.И. Наградной лист №19 к присвоению звания Героя Советского Союза С. Абдуллаева. Октябрь 1943. – С.1.

Abdullayevni unga topshirilgan jangovar vazifani bajarishdagi mas’uliyati uchun, o‘zidan yuqorida turuvchi qo‘mondonlikka “Sovet Ittifoqi qahramoni” oliv unvoni bilan taqdirlash to‘g‘risida taqdimnomma yuborgan edi²⁶.

Serjant Samig‘ Abdullayevning o‘zi dushmanning yerdan va osmondan berayotgan zarbalari ostida 3000 ga yaqin turli xildagi minalarni, ulardan 39 ta juda murakkab tuzilishdagi chiqarilmas va 43 ta “surpriz” – minalarni zararsizlantirdi. “Nemis-fashistlari bilan bo‘lgan jangda qo‘mondonlikning vazifalarini bajarishda ko‘rsatgan namunali xizmati, shuningdek, ko‘rsatgan jasorati va qahramonliklari” uchun 1944-yil 16-may kuni SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Qarori bilan serjant Abdullayev Samig‘ Fayzulovichga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi²⁷.

“Верхний” va “Нижний Курп” nomli aholi punktlari hududida yuz bergan qonli to‘qnashuvda Samig‘ Abdullayev komandiri bo‘lgan bo‘linma jangchisi A. Vinichenko minalashtirilgan dalada, dushman tanklari paydo bo‘lgunga qadar o‘rnatilgan minalarni yopish vazifasini oladi va o‘sha erda qoldiriladi. Vinichenko yaqinlashib kelayotgan dushman tanklarini ko‘rib, zudlik bilan oldindan tayyorlanib qo‘yilgan minadan o‘tish yo‘llariga minalarni o‘rnatadi va o‘zi makkajo‘xori ekilgan dalaga kirib, yashirinib oladi. Bo‘linma komandiri Samig‘ Abdullayev ushbu jangovar vazifani shaxsan o‘zi nazoratga olib, boshqargan edi²⁸.

Samig‘ Abdullayevning bo‘linmasida xizmat qilgan jangovor do‘sti Malko Boris Pavlovich 2021-yilda bo‘lib o‘tgan suhbatda quyidagilarni bayon qilgan edi: bizning 97-sapyorlar bataloni 51-armiyaning 63-tankchilar brigadasi tarkibida jang qilib, Qrim stansiyasini ozod etdi²⁹. Mohirlik bilan boshqarayotgan serjant Samig‘ Abdullayevga hayron qolardim. Menga uning botirligi, qo‘rqmasligi, turli jangovar vazifalarga o‘ylanmasdan kirib ketishi, qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarga minalarni o‘rnatish va zararlantirishni mohirlik bilan o‘rgatishi yoqardi³⁰.

Men u insondan ko‘p sapyorlik sirlarini o‘rgandim, shuning uchun bo‘lsa kerak, janglardan tirik chiqdim. Uning qahramonligini alohida eslayman. U yuqori unvonga loyiq edi. Buni isbotladi. Sovet Ittifoqi qahramoni bo‘ldi³¹. Haqiqatdan ham Samig‘ Abdullayev haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni, ajdodlarining munosib vorisi sifatida qahramonlik va fidoyilik ko‘rsatdi. Shimoliy Kavkaz frontida 1943-yil iyun-noyabr, alohida Primorsk armiyasi tarkibida 1943-yil noyabr – 1944-yil may, Novorossiysk-Tomansk, Kerchensk-Eltigensk va Qrim operatsiyalarida ishtirok etdi. 1943-yilning kuzida Kuban daryosi va Taman yarim orolini ozod qilinishi

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуаси “Шон-шараф” давлат музеи. Хотиралардан ўрин олган тарих. – Тошкент: Замин нашр, 2021. – Б. 191.

²⁷ Видман П.И. Наградной лист №19 к присвоению звания Героя Советского Союза С. Абдуллаева. Октябрь 1943. – С.6.

²⁸ Баданин Б.В. На боевых рубежах Кавказа. Очерки по инженерному обеспечению битвы за Кавказ в Великой отечественной войне. – Москва: Воениздат, 1962. – С. 36.

²⁹ С.Абдуллаевнинг қуролдош дўсти, Б. Малько билан бўлган сухбат. 2022 йил 10 январь. Тадқиқотчининг дафтари. – Б.15.

³⁰ С.Абдуллаевнинг қуролдош дўсти, Б. Малько билан бўлган сухбат. 2022 йил 10 январь. Тадқиқотчининг дафтари. – Б.16.

³¹ Глебов С., Юхновская Д., Паньков А. «Участника освобождения Севастополя Б. Малько поздравили с днём победы». Ғалабанинг 75 йиллиги муносабати билан табриги матнидан кўчирма. “Севинформбюро”. – Севастополь, Крым, 2020.

uchun kechgan janglarda jonbozlik ko‘rsatdi³².

Qisqa muddat, ya’ni 16-sentabrdan 9-oktabrgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida serjant Samig‘ Abdullayev dushmanning shiddatli hujumlari ostida umumiy hisobda 3000 ga yaqin turli xil minalarni, shu jumladan, 39 ta chiqarib bo‘lmaydigan minalarni, 34 ta mina surprizlarni topdi va zararsizlantirdi. Samig‘ Abdullayev bu xizmatlari bilan o‘zbek farzandining nimaga qodir ekanligini isbotladi, komandirlarining maqtovlariga sazovor bo‘ldi³³.

Ko‘prikan narida “Прохладный” aholi punktiga boradigan yo‘lni egallah tankchilar brigadasining so‘nggi vazifasi edi. Daryoga boradigan yo‘llarga esa minalar qo‘yilgan. Samig‘ Abdullayevning bo‘linmasi sapyorlari ustidan dushmanning o‘q va snaryadlari jaladek yog‘ib turishiga qaramay, ular suvda uch soat tik turgan holatda, qo‘shinlarni daryodan o‘tishlari uchun maxsus vositalar yasadilar³⁴.

Bundan keyin janglar yana davom ettirilib, 1943-yil 25-sentabrdan tanklar va sapyorlar dushmanning orqa tomoniga yorib o‘tdilar. Boshlanib ketgan jang jarayonida Samig‘ Abdullayev dushmanning o‘ziyurar to‘pini ko‘rib qoldi. U xavfdan cho‘chimay, to‘pga bir bog‘lam granatani otib, uni ishdan chiqardi va ekipajini yakson qildi. Lekin, “Джигинское” degan aholi punktida 63-tankchilar brigadasi kolonnasini dushman qurshab oldi. Kuchlar teng kelmagan jangda Samig‘ Abdullayevning bo‘linmasi tankchilar bilan birgalikda to‘rt soatdan ko‘proq vaqt davomida gitlerchilarning hujumlarini qaytarib turdi. Bu jangda yo‘qotishlar ikki tomonda ham ko‘p bo‘ldi³⁵.

Jang davomida muhandislik ishlarini bajarishda dushmanning askar va ofitserlarining 87 nafarini va 4 ta dushmanning olovli nuqtalarini yakson qildi, 6 ta ko‘priki qurib, Sovet armiyasi tank qo‘shinlarining ko‘prikan betalofat o‘tishini ta’minladi. Jangovar vazifalarni bajarishda o‘rtoq Samig‘ Abdullayev o‘zining o‘ta mardligini, qahramonligini va jasoratini ko‘rsatdi³⁶. 8-alohida yengil-suzib o‘tuvchi bo‘linma komandiri kapitan Tishin Kondrat Martinovichning serjant Samig‘ Abdullayevni “Qizil bayrog” Davlat mukofotiga tavsiya etish varag‘ida, u tomonidan bajarilgan jangovar vazifalarni batafsil yozib, mardligini, jasurligini, yuqori qo‘mondonlar buyruqlarini so‘zsiz bajarganini ko‘rsatadi³⁷.

1944-yilning 7-may kuni Sevastopol shahrini shturm qilish uchun hujum boshlandi va front bo‘yicha joylashtirilgan qo‘shinlar tarkibi yoppasiga hujumga o‘tdi. Sevastopol ostonasidagi qattiq janglarning birida Samig‘ Abdullayev og‘ir yarador bo‘ldi va Novocherkassk shahridagi harbiy shifoxonaga davolanish uchun yuborildi³⁸. Serjant Samig‘ Abdullayevning sapyorlari injernerlik bataloni tarkibida 63-alohida tank brigadasining ixtiyoriga o‘tkazildi. Bu tank brigadasi

³² Герои Советского Союза. Краткий биографический словарь. – Москва: Воениздат, 1987. – С.911.

³³ Видман П.И. Наградной лист №19 на Абдуллаева С. Октябрь 1943 год. – Л.2.

³⁴ Видман П.И. Наградной лист №19 на Абдуллаева С. Октябрь 1943 год. – Л.4.

³⁵ Иброхим Раҳим. Ўзбек қаҳрамонлари миллатимиз ғурури. – Тошкент: Ўзбекистон ЛКСМ Марказий Комитети “Ёш гвардия” нашриёти, 1987. – Б.79.

³⁶ Хўжаев У. Жасорат мадхи. – Тошкент, 1973. – Б. 55.

³⁷ Кургузов И.П. Солдатская доблесть. – Ташкент, 1970. – С. 89

³⁸ Адҳам Раҳмат. Олтин ўлдуз кавалерлари. – Тошкент: Ёш гвардиячи. 1977. – Б. 14-17.

Kuban etaklarini va Taman yarim orolini gitlerchi bosqinchilardan ozod qildi³⁹.

97-motomuhandislar bataloni komandiri mayor P.I. Vidmanning serjant Samig‘ Abdullayevni navbatdagi “Qizil yulduz” ordeni Davlat mukofotiga tavsiya etish varag‘ida uning amalga oshirgan qahramonliklari batafsil yoziladi⁴⁰.

Alovida Primorsk armiyasi qo‘shinlari qo‘mondonining 1944-yil fevral oyidagi buyrug‘i bilan ko‘rsatgan jasorati va matonati, shuningdek, nemis bosqinchilari bilan bo‘lgan kurashda Front qo‘mondonlarining jangovar vazifalarini namunali bajargani uchun SSSR Sovetlar Kengashining yuqori Prezidiumi nomidan 97-alohida motorlashtirilgan muhandislik bataloni bo‘linma komandiri serjant Abdullayev Samig‘ Fayzulovich “Qizil yulduz” ordeni bilan taqdirlangan⁴¹.

1944-yil 17-may kuni 118-son 9575 raqami ostidagi “Правда” gazetasida keltirilishicha, SSSR Prezidiumi Oliy Kengashining qarori bilan Sovet Armiyasi Generallari, ofitserlari, serjantlari va oddiy askarlari shaxsiy tarkibiga “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvonini berish to‘g‘risidagi qarorga ko‘ra, “Nemis bosqinchilari bilan bo‘lgan kurashda ko‘rsatgan qahramonligi, jasorati va matonati uchun 97-alohida motorlashtirilgan muhandislik bataloni bo‘linma komandiri serjant Abdullayev Samig‘ Fayzulovichga “Lenin” va “Oltin Yulduz” ordenlari taqdim etilgani va “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoni⁴² – berilgani ko‘rsatilgan edi.

Qizil Armiya Muhandislar qo‘shini kadrlar bo‘limi boshlig‘i polkovnik A.Pojarovning dalolatnomasiga ko‘ra, 1944-yil 1-maydagi SSSR Prezidiumi Kengashining Qaroriga asosan, 97-alohida motorlashtirilgan-muhandislik bataloni oddiy askarlari, serjantlari va ofitserlari tarkibiga “За оборону Кавказа” medali topshirilgan. Dalolatnomada serjant Samig‘ Abdullayev ro‘yxatning birinchi raqami ostida taqdim etilgan⁴³.

Abdullayev Samig‘ Fayzulovichning Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan birga “Lenin” va “Oltin Yulduz” ordenlari bilan taqdirlanishiga asosiy sabab, bu uning 1943-yilning 16-17 sentabr, 25-sentabrdan 2-oktabr kunlari orasida Novorossiysk-Tamansk hujum operatsiyalarida faol ishtirop etganidir⁴⁴.

Batalon komandiri P.I.Vidmanning 1943-yil 14-oktabrdagi taqdimnomasida ham: ...bir oy ichida serjant Samig‘ Abdullayev qo‘mondonlik qilgan savyorlar bo‘linmasi dushman minalarining 2798 tasini aniqladi va zararsizlantirdi. Tanklarning harakatini davom ettirish uchun 6 ta ko‘priklar qurdi. Serjant Samig‘ Abdullayevning shaxsan o‘zi 87 nafar fashistni yer tishlatdi, 6 ta o‘zi yurar artilleriya qurilmalarini yakson qildi. Gospitalda davolanib bo‘lgach, 1944-yilning kuz oyida Samig‘ Abdullayev birinchi marta Moskvaga bordi va Kremlda M.A. Kalinining o‘zi Samig‘ Abdullayevga Lenin va Oltin yulduz ordenlarini tantanali

³⁹ Джураев Т.Д. Воины Узбекистанцы на фронтах Отечественной войны. – Ташкент: Фан, 1965. – С. 79

⁴⁰ Интернет ресурсы: Наша Победа. Режим доступа: <http://www.nashapobeda.lv/> Победители - Солдаты Великой Войны. Режим доступа: <http://www.pobediteli.ru>. Солдат 1941 - 1945. Режим доступа: <http://soldat1941-1945.narod.ru/index.html>.

⁴¹ Приказ войскам отдельной Приморской армии. Февраль 1944 г. – Л. 2.

⁴² Газета Правда. Май 1944 г. – Л. 2.

⁴³ Акт Начальника отдела кадров инженерных войск КА. Август 1944 г. – Л.1.

⁴⁴ Россия Федерацияси Мудофаа Вазирлиги марказий архиви, 33-Тарихий ахборот фонди, 793756-Тарихий ахборот рўйхати.

ravishda taqdim etdi”⁴⁵ – degan ma’lumotlar qayd etilgan.

Alovida Primorsk armiyasi qo’shinlari qo’mondonining 1944-yil fevral oyidagi 172/n sonli taqdirlash qog’oziga asosan, 97-alohida motorlashtirilgan muhandislik bataloni bo’linma komandiri katta serjant Abdullayev Samig‘ Fayzulovich, janglarda ko’rsatgan jasorati va matonatlari, shuningdek nemis bosqinchilari bilan bo’lgan kurashda Front qo’mondonlarining jangovar vazifalarini namunali va sifatli bajargani, qo’l ostidagi askarlariga namuna bo’lganligi uchun SSSR Sovetlar Kengashining yuqori Prezidiumi nomidan “Qizil Yulduz” Ordeni bilan taqdirlangan.

Janglarda ko’rsatgan jasorati va qahramonligi, botir va dovyurakligi, qo’mondonlar tomonidan berilgan jangovar vazifalarni a’lo darajada bajargani uchun, Qizil Yulduz ordenli 97-alohida motorlashtirilgan muhandislik bataloni bo’linma komandiri, Sovet Ittifoqi qahramoni katta serjant Abdullayev Samig‘ Fayzulovich, 1944-yil 1-may kuni SSSR Prezidiumi Kengashining Qarori bilan “За оборону Кавказа” medali bilan taqdirlandi. Uning nemis fashistlarini tor-mor qilishda qo’shgan ulkan hissasi va mehnatlari yuqoridagi qo’mondon va rahbarlar tomonidan yuqori baholandi, hamda shaxsiy tarkib oldida namuna etib ko’rsatildi.

Samig‘ Abdullayev 1944-yil 5-dekabrda 7-motorlashtirilgan shturmchilar muhandislik-sapyorchilar brigadasining 97-alohida shturmchilar motorlashtirilgan muhandis sapyorlik bataloni ro’yxatiga kiritilib, qo’mondonlar tomonidan berilayotgan jangovar vazifalarni bajarishda o’zini mard va jasur komandir sifatida ko’rsatgani, o’zining mutaxassisligi bo’yicha ishlarini yaxshi bilishi, muntazam ravishda o’z ustida ishlashi, intizomli, yaxshi tashkilotchi ekanligi”, shuningdek, u “2-darajali Vatan urushi” ordeni bilan taqdirlangan, unga “Katta serjant” harbiy unvoni bilan taqdirlash uchun taqdim etilayotgani⁴⁶ – ko’rsatib o’tilgan.

